**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ORIPOV SHUKRULLO ABDUSALOMOVICH

BESSEL OPERATORI QATNASHGAN TO‘RTINCHI TARTIBLI GIPERBOLIK VA PSEVDOGIPERBOLIK TENGLAMALAR UCHUN MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

UDK: 517.95

Fizika – matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико – математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical – mathematical sciences

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ORIPOV SHUKRULLO ABDUSALOMOVICH

BESSEL OPERATORI QATNASHGAN TO‘RTINCHI TARTIBLI GIPERBOLIK VA PSEVDOGIPERBOLIK TENGLAMALAR UCHUN MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Fizika - matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B 2024.2.PhD/FM1058 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Karimov Shaxobiddin Tuychiboyevich** fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Xasanov Anvardjan** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Ergashev Tuxtasin Gulamjanovich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «16» 04 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02, faks: (+99873) 244-44-93, e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (495 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «03» 04 kuni tarqatildi.

(2025-yil «03» 04 dagi 7 raqamli reyestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEKISTON

Y.P.Apakov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

I.U.Xaydarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.n., dotsent

K.S.Gaziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, f.-m.f.n., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab amaliy masalalarni tadqiq etish differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich va chegaraviy masalalarni hal qilishga olib kelinadi. Xususan, o‘qqa nisbatan simmetrik potensiallar nazariyasi, Radon almashtirishlari va tomografiya, gazlar dinamikasi va akustika, gidrodinamikaning suyuqliklar oqimi nazariyasi, elastiklik va plastiklik jarayonlarining matematik modellari singulyar koeffitsiyentli to‘rtinchi tartibli giperbolik va psevdogiperbolik tipdagi differensial tenglamalarga keltiriladi. Bundan ko‘rinadiki, singulyar koeffitsiyentli to‘rtinchi tartibli giperbolik va psevdogiperbolik tipdagi differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich va chegaraviy masalalarni tadqiq etish yuqoridagi amaliy masalalar haqida to‘la tasavvur hosil qilgan holda, xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dunyoda to‘rtinchi tartibli giperbolik va psevdogiperbolik tenglamalar uchun boshlang‘ich va chegaraviy masalalarni qo‘yish va tadqiq etish hamda ularni yechish usullarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, bunday to‘rtinchi tartibli differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich va chegaraviy masalalarni o‘rganish bilan birga singulyar koeffitsientli, ayniqsa Bessel operatori qatnashgan to‘rtinchi tartibli giperbolik va psevdogiperbolik tenglamalar uchun boshlang‘ich va boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni tadqiq etishga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tadqiqotlar yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Jumladan, matematika fanlarining ustuvor yo‘nalishlari, xususan, algebra va funksional analiz, differensial tenglama va matematik fizika, dinamik tizimlar nazariyasi, geometriya va topologiya, ehtimollik nazariyasi va matematik statistika, amaliy matematika va matematik modellashtirish bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, matematiklarning asosiy vazifalari va faoliyati sifatida belgilangan[1]. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida bugungi kunga qadar ushbu sohalar bo‘yicha muhim ilmiy natijalar qo‘lga kiritildi. Jumladan, differensial tenglamalar yo‘nalishida Bessel operatori qatnashgan to‘rtinchi tartibli giperbolik va psevdogiperbolik tenglamalar uchun Koshi, Gursa masalalarining yechimlarini aniq ko‘rinishini topish hamda yagonaligini isbotlash alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 292-son qarori

quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Singulyar koeffitsiyentli xususiy hosilali differensial tenglamalar boy tarixga ega. Birinchi marta bunday differensial tenglamalar, asosan, ikkinchi tartibli giperbolik tipdagi tenglamalar L.Eyler, B.Riman, S.Puasson va G.Darbu tomonidan singulyar koeffitsiyentlarni o‘zgarmas parametrlarining turli xil xususiy qiymatlari uchun ko‘rib chiqilgan. G.Darbu monografiyasida sirtlarning egrilik masalalarini o‘rganayotganda bunday tenglamalarni Eyler-Puason tenglamalari deb ataydi. Shuning uchun, keyinchalik ko‘plab mualliflar bunday tenglamalarni va ularning elliptik analoglarini Eyler-Puason-Darbu (EPD) tenglamalari deb atay boshladilar. A.Weinstein, E.C.Young, D.Fox, J.B.Diaz, H.F.Weinberger, E.K.Blum, D.W.Bresterslar tomonidan Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligi singulyar koeffitsientlarni o‘zgarmas parametrlarining turli qiymatlari uchun tadqiq qilindi.

Singulyar koeffitsiyentlarga ega bo‘lgan xususiy hosilali differensial tenglamalar orasida singulyar Bessel operatori qatnashgan tenglamalarni alohida ta’kidlash lozim. Bessel operatorlari qatnashgan ikkinchi tartibli differensial tenglamalar bo‘yicha barcha muammolar Voronej matematigi I.A.Kipriyanov va uning shogirdlari tomonidan to‘liq o‘rganilgan. Ushbu yo‘nalish haqida batafsil ma’lumotlarni V.V.Katraxov va S.M.Sitnik hamda S.M.Sitnik va E.L.Shishkinalarning monografiyalaridan topish mumkin. Bessel operatorlari qatnashgan ikkinchi tartibli differentsial tenglamalar nazariyasi almashtirish operatorlarini qo‘llashning alohida sohasiga aylandi. Ushbu sinfning tenglamalarini tadqiq qilishning dastlabki bosqichida Sonin va Puasson juftligidan foydalanilgan. Almashtirish operatori sifatida bu operatorlar dastlab Delsart asarlarida joriy etilgan, keyin esa ularni o‘rganish Delsart va Lions asarlarida davom ettirilgan. A.K.Urinov va Sh.T.Karimov ishlarida almashtirish operatori sifatida kasr tartibli Erdeyi-Kober operatorlari qo‘llanilgan.

A.V.Bitsadze, A.M.Naxushev, M.M.Smirnov, S.A.Tersenov, I.A.Kipriyanov, R.Carroll, R.Showalter, M.B.Kapilevich, N.Radzhabov, K.B.Sabitov, S.A.Aldashev, O.A.Marichev, A.A.Kilbas, O.A.Repin, V.V.Katraxov, S.M.Sitnik, M.S.Salohiddinov, A.K.O‘rinov, M.Mirsaburov, B.Islomov, A.Xasanov, Sh.T.Karimov, T.G.Ergashev, E.T.Karimov, K.T.Karimov va boshqalar xususiy hosilali singulyar koeffitsientli differensial tenglamalar uchun turli masalalarni o‘rgandilar. Hozirda yuqori tartibli xususiy hosilali differentsial tenglamalar uchun masalalarni tadqiq etish jadal rivojlanmoqda. Jumladan, ikki o‘lchovli to‘rtinchi tartibli differensial tenglamalarni tizimli oʻrganish M.S.Salohiddinov, T.D.Joʻraev va A.Sopuev, A.M.Naxushev, M.M.Smirnov, M.M.Meredov, A.K.Urinov va ularning shogirdlari ishlarida tadqiq qilinmoqda. T.D. Joʻraev va A. Sopuevlar ishlarida ikki oʻzgaruvchili umumiy toʻrtinchi tartibli chiziqli tenglamani toʻliq sinflash va kanonik koʻrinishga keltirish masalalari oʻrganilgan. A.G.Sveshnikov, A.B.Alshin, M.O.Korpusov, Yu.D.Pletner, A.I.Kojanov, V.I.Jegalov, A.N.Mironov, E.A.Utkina va boshqalar ishlarida psevdogiperbolik Bussineska-Lyav tenglamasi uchun boshlangʻich va lokal chegaraviy masalalar yechilishini oʻrgandilar. Biroq, muhim amaliy ahamiyatga ega boʻlgan bir yoki bir nechta oʻzgaruvchilar boʻyicha Bessel operatori qatnashgan kichik hadli uchinchi va toʻrtinchi tartibli giperbolik tipdagi tenglamalar va psevdogiperbolik tenglamalar uchun masalalar deyarli oʻrganilmagan. Mazkur dissertatsiya aynan shu yoʻnalishdagi masalalarni oʻrganishga bagʻishlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Fargʻona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Differensial tenglamalar va unga turdosh matematik sohalarning dolzarb muammolari” dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi almashtirish operatorlari va Riman usuli yordamida singulyar koeffitsiyentli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlangʻich va chegaraviy masalalarni qoʻyish va oʻrganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Bessel operatori qatnashgan differensial tenglamalar uchun Riman funksiyalarini qurish usulini ishlab chiqish;

vaqt oʻzgaruvchisi boʻyicha Bessel operatori qatnashgan toʻrtinchi tartibli giperbolik tenglama uchun Koshi masalasini bayon qilish va bir qiymatli yechilishini tekshirish;

fazoviy oʻzgaruvchisi boʻyicha Bessel operatori qatnashgan toʻrtinchi tartibli giperbolik tenglama uchun Koshi masalasini bayon qilish va bir qiymatli yechilishini isbotlash;

Bessel operatori qatnashgan psevdogiperbolik Bussineska-Lyav tenglamasi uchun Koshi va Gursa masalalarini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti Bessel operatori qatnashgan xususiy hosilali toʻrtinchi tartibli giperbolik va psevdogiperbolik tenglamalar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Bessel operatori qatnashgan xususiy hosilali toʻrtinchi tartibli giperbolik va psevdogiperbolik tenglamalar uchun boshlangʻich va chegaraviy masalalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida matematik fizikaning almashtirish operatorlari usuli, maxsus funksiyalar nazariyasi va Riman usullari qoʻllanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Bessel operatori qatnashgan differensial tenglamalar uchun almashtirish operatorlari yordamida Riman funksiyasini qurish usuli ishlab chiqilgan;

vaqt o‘zgaruvchisi bo‘yicha Bessel operatori qatnashgan to‘rtinchi tartibli giperbolik tenglama uchun topilgan Riman funksiyasidan foydalanib Koshi masalasining bir qiymatli yechilishi isbotlangan;

fazoviy o‘zgaruvchisi bo‘yicha Bessel operatori qatnashgan to‘rtinchi tartibli giperbolik tenglama uchun Koshi masalasining bir qiymatli yechilishi almashtirish operatorlari va Riman usullaridan foydalanib isbotlangan;

Bessel operatori qatnashgan psevdogiperbolik Bussineska-Lyav tenglamasi uchun Koshi va Gursa masalalarining yechimlari almashtirish operatorlari va Riman usulidan foydalanib topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari olingan ilmiy natijalarni shunday matematik modellarga keltiriladigan jarayonlarning sifat xususiyatlarini o‘rganishga hamda qo‘yilgan masalalar yechimini sonli hisoblashga qo‘llash mumkinligidan iborat.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Matematik isbotlar almashtirish operatorlari usuli, matematik fizika, maxsus funksiyalar nazariyasi va Riman usullariga, shuningdek, matematik fikrlash va hisob-kitoblarning qat’iyligiga asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ishda olingan ilmiy natijalar to‘rtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich va chegaraviy masalalar nazariyasini yanada rivojlantirish uchun asos sifatida foydalanish mumkin.

Dissertatsiya tadqiqotining amaliy ahamiyati geofizika, okeanologiya, atmosfera fizikasi, gazlar dinamikasi, gidrodinamikaning suyuqliklar oqimi nazariyasi, elastiklik va plastiklik jarayonlarini va fanning boshqa sohalariga oid jarayonlarni matematik modellashtirishda qo‘llash mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bessel operatori qatnashgan to‘rtinchi tartibli giperbolik va psevdogiperbolik tenglamalar uchun masalalarni tadqiq qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Bessel operatori qatnashgan to‘rtinchi tartibli Bussineska-Lyav tenglamasi uchun qurilgan Riman funksiyasi hamda Koshi va Gursa masalalarining yechim formulalaridan № 23-21-10015-sonli xorijiy grantda psevdogiperbolik tenglamalar va koeffitsiyentlari maxsuslikka ega bo‘lgan differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechishda foydalanilgan (Rossiya Ta’lim va fan vazirligi Chelyabinsk davlat universitetining 2024-yil 8-oktyabrdagi №13-8-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ba’zi noklassik differensial tenglamalar uchun yechimning integral ko‘rinishini topish va ularni amaliy masalalarga tatbiq qilish imkonini bergan;

koeffitsiyentlari maxsuslikka ega bo‘lgan to‘rtinchi tartibli giperbolik tipdagi tenglama va Bussineska-Lyav tenglamasi uchun boshlang‘ich va chegaraviy masalalarning yechimlarini qurish bo‘yicha olingan natijalardan “Bisingulyar masalalar va ularning tatbiqlari” nomli xorijiy ilmiy loyihada psevdogiperbolik va singulyar koeffitsiyentli differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning yechimini qurishda foydalanilgan (O‘sh davlat universitetining 2024-yil 25-noyabrdagi №1576-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, amaliy masalalar yechimlarining integral ko‘rinishlarini topish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 16 ta ilmiy ish e’lon qilingan boʻlib, ulardan 6 tasi ilmiy maqola, shulardan 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda, 2 tasi esa Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan mahalliy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 101 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, muammoning oʻrganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bessel operatori qatnashgan xususiy hosilali tenglamalar uchun Riman funksiyasini qurish”** nomli birinchi bobida singulyar koeffitsiyentli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun Riman funksiyasini qurishning bir usuli bayon qilingan va Riman funksiyasining aniq koʻrinishlari topilgan.

1.1-paragrafda Erdeyi-Kober operatorlari hamda ularning xossalariga oid boʻlgan ba’zi ma’lumotlar keltirilgan.

1.2-paragrafda Gauss, Appell, Gumbert, Kampe-de-Ferye va ba’zi umumlashgan gipergeometrik funksiyalar va ularning xossalari haqida ayrim ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Kampe-de-Ferye gipergeometrik funksiyasining xususiy holi boʻlgan

$$K_0(a;b,c;b',c';\sigma_1,\sigma_2)=F^{1;0;0}_{0;2;2}\left[\begin{matrix}1; & -; & -; \\ -; & 3/2,1; & 3/2,1;\end{matrix}\ \sigma_1,\sigma_2\right]=$$

$$=\sum_{m,n=0}^{\infty}\frac{(a)_{m+n}}{(b)_m(c)_m(b')_n(c')_n}\frac{\sigma_1^m}{m!}\frac{\sigma_2^n}{n!}, \tag{1}$$

funksiya uchun quyidagi natijalar olingan, bu yerda a, b, c, b', c' haqiqiy sonlar boʻlib, $b, c, b', c' \neq 0,-1,-2,...,$ $(a)_n = a(a+1)\,...\,(a+n-1)$ – Poxgammer belgisi.

1-lemma. *Agar* $b,c,b',c' \neq 0,-1,-2,...,-n,...$ *boʻlsa, u holda* (1) *qator uchun quyidagi differensiallash formulalari oʻrinli:*

$$\frac{\partial}{\partial\sigma_1}K_0(a;b,c;b',c';\sigma_1,\sigma_2)=\frac{a}{bc}K_0(a+1;\,b+1,\,c+1;\,b',\,c';\,\sigma_1,\,\sigma_2)\,,$$

$$\frac{\partial}{\partial\sigma_2}K_0(a;b,c;b',c';\sigma_1,\sigma_2)=\frac{a}{b'c'}K_0(a+1;\,b,\,c;\,b'+1,\,c'+1;\,\sigma_1,\,\sigma_2)\,,$$

$$\left(\sigma_1\frac{\partial}{\partial\sigma_1}+(b-1)\right)K_0(a;b,c;b',c';\sigma_1,\sigma_2)=(b-1)K_0(a;b-1,c;b',c';\sigma_1,\sigma_2)\,,$$

$$\left(\sigma_2\frac{\partial}{\partial\sigma_2}+(b'-1)\right)K_0(a;b,c;b',c';\sigma_1,\sigma_2)=(b'-1)K_0(a;b,c;b'-1,c';\sigma_1,\sigma_2)\,,$$

$$\left(\sigma_1\frac{\partial^2}{\partial\sigma_1^2}+b\frac{\partial}{\partial\sigma_1}\right)K_0(a;b,c;b',c';\sigma_1,\sigma_2)=\frac{a}{c}K_0(a+1;\,b,\,c+1;\,b',\,c';\,\sigma_1,\,\sigma_2)\,,$$

$$\left(\sigma_2\frac{\partial^2}{\partial\sigma_2^2}+b'\frac{\partial}{\partial\sigma_2}\right)K_0(a;b,c;b',c';\sigma_1,\sigma_2)=\frac{a}{c'}K_0(a+1;\,b,\,c;\,b',\,c'+1;\,\sigma_1,\,\sigma_2)$$

$$\left(\sigma_1\frac{\partial^2}{\partial\sigma_1^2}+b\frac{\partial}{\partial\sigma_1}\right)\left(\sigma_2\frac{\partial^2}{\partial\sigma_2^2}+b'\frac{\partial}{\partial\sigma_2}\right)K_0(a;b,c;b',c';\sigma_1,\sigma_2)=$$

$$=\frac{a(a+1)}{cc'}K_0(a+2;\,b,\,c+1;\,b',\,c'+1;\,\sigma_1,\,\sigma_2)\,.$$

1.3-paragraf Bessel operatori qatnashgan ikki o‘zgaruvchili xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun Riman funksiyasini qurishga bag‘ishlangan. Buning uchun quyidagi Koshi masalasi tadqiq etilgan:

Koshi masalasi.

$$u_{yy}+\frac{2\beta}{y}u_y-L^{(x)}(u)=f(x,y),\ (x,y)\in\Omega \tag{2}$$

tenglamaning

$$u(x,0)=0,\ \ u_y(x,0)=0,\ \ x\in R \tag{3}$$

birjinsli boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin, *bunda* $\beta\in R$ *bo‘lib*, $0<2\beta<1$, $L^{(x)}$ – y *ga bog‘liq bo‘lmagan, eng yuqori tartibli hosilasining koeffitsienti musbat bo‘lgan*, x *o‘zgaruvchi bo‘yicha ikkinchi tartibli chiziqli elliptik operator,* Ω *esa* $L^{(x)}$ *operator ko‘rinishiga bog‘liq bo‘lgan* $\{(2),(3)\}$ *masala yechimining aniqlanish sohasi*.

Agar $R(\xi,\eta;x,y)$ Riman funksiyasi ma’lum bo‘lsa, u holda {(2), (3)} masala yechimi

$$u(x,y)=\iint_{\Omega}R(\xi,\eta;x,y)\,f(\xi,\eta)\,d\xi d\eta$$

ko‘rinishda bo‘ladi.

Erdeyi-Kober almashtirish operatoridan foydalanib, (2) tenglama uchun $L^{(x)}=\partial^2/\partial x^2$ bo‘lganda qo‘yilgan Koshi masalasining Riman funksiyasi

$$R_1(x,y;\xi,s)=\frac{1}{2}(s/y)^{\beta}F(\beta,1-\beta,1;\sigma)$$

ko‘rinishda topilgan, bu yerda $\sigma=[(\xi-x)^2-(s-y)^2]/(4sy)$, $F(a,b,c;z)$– Gaussning gipergeometrik funksiyasi; $L^{(x)}=\dfrac{\partial^2}{\partial x^2}+\dfrac{2\alpha}{x}\dfrac{\partial}{\partial x}+\lambda^2$ hol uchun esa (bunda $\alpha,\lambda\in R$, $\alpha>0$) Riman funksiyasi

$$R_2(x,y;\xi,s)=\frac{1}{2}(\xi/x)^{\alpha}(s/y)^{\beta}B_2^{(3)}(\alpha,\beta,1-\alpha,1-\beta,1;\sigma_1,\sigma_2,\sigma_3)$$

ko‘rinishda topilgan, bu yerda $\sigma_1=-r^2/(4x\xi)$, $\sigma_2=r^2/(4ys)$, $\sigma_3=(\lambda^2r^2)/4$, $r^2=(\xi-x)^2-(s-y)^2$,

$$B_2^{(3)}(\alpha_1,\alpha_2,\beta_1,\beta_2,\gamma;x,y,z)=\sum_{m,n,p=0}^{\infty}\frac{(\alpha_1)_m(\alpha_2)_n(\beta_1)_m(\beta_2)_n}{(\gamma)_{m+n+p}m!n!p!}x^my^nz^p$$

– uch o‘zgaruvchili buzilgan gipergeometrik funksiya.

Dissertatsiyaning **“Bessel operatori qatnashgan to‘rtinchi tartibli giperbolik tenglama uchun masalalar”** deb nomlangan ikkinchi bobi ikkita paragrafdan iborat bo‘lib, unda vaqt va fazoviy o‘zgaruvchilar bo‘yicha Bessel operatori qatnashgan to‘rtinchi tartibli giperbolik tenglama uchun Koshi masalasi tadqiq etilgan. Masalani yechish uchun Riman usuli hamda Riman funksiyasini qurishning almashtirish operatorlari usuli qo‘llanilgan va bu usul yordamida yechimning aniq ko‘rinishi topilgan.

2.1-paragrafda $\Omega_1=\{(x,t):\ x\in R,\, t>0\}$ sohada vaqt o‘zgaruvchisi bo‘yicha Bessel operatori qatnashgan ushbu

$$L_{\beta}^{\lambda}(u)\equiv\left(\frac{\partial^2}{\partial t^2}+\frac{2\beta}{t}\frac{\partial}{\partial t}-\frac{\partial^2}{\partial x^2}\right)^2u(x,t)-\lambda^2u(x,t)=0 \qquad (4)$$

tenglama uchun quyidagi Koshi masalasi qo‘yilgan va tadqiq etilgan, bu yerda $\beta,\,\lambda\in R$ bo‘lib, $0<\beta<1/2$.

Koshi masalasi. *Shunday* $u(x,t)\in M$ *funksiya topilsinki, u* Ω_1 *sohada* (4) *tenglamaning yechimi bo‘lib, quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:*

$$u(x,0)=\varphi_0(x),\ \lim_{t\to0}t^{2\beta}u_t(x,t)=\psi_0(x),$$

$$u_{tt}(x,0)=\varphi_1(x),\ \lim_{t\to0}t^{2\beta}u_{ttt}(x,t)=\psi_1(x),\ x\in R, \qquad (5)$$

bu yerda $M\in\{u(x,t):\, u,\ t^{2\beta}u_t,\ u_{tt},\ t^{2\beta}u_{ttt}\in C(\bar{\Omega}),\ u\in C^4(\Omega)\}$, $\varphi_k(x)$, $\psi_k(x)$, $k=0,1$ *– berilgan silliq funksiyalar.*

Bu masala bo‘yicha asosiy natija quyidagi teoremada keltirilgan:

1-teorema. *Agar* $\varphi_k(x)\in C^{4-2k}(R)$, $\psi_k(x)\in C^{3-2k}(R)$, $k=0,1$ *hamda* $\varphi_k(x)$ *va* $\psi_k(x)$ *funksiyalarning mos holda barcha* $4-2k$ *va* $3-2k$, $k=0,1$ *tartibli hosilalari* $x=0$ *da nolga teng bo‘lsa, u holda ushbu*

$$u(x,t)=\gamma_1t^{1-2\beta}\int_{x-t}^{x+t}[t^2-(\xi-x)^2]^{\beta-1}\,{}_0F_3\left(\frac{1}{2},\frac{\beta}{2},\frac{\beta+1}{2};\delta\right)\varphi_0(\xi)d\xi-$$

$$-\frac{1}{2}\gamma_1t^{1-2\beta}\int_{x-t}^{x+t}[t^2-(\xi-x)^2]^{\beta-1}\,{}_0F_3\left(\frac{3}{2},\frac{\beta}{2},\frac{\beta+1}{2};\delta\right)(\xi-x)\varphi_0'(\xi)d\xi+$$

$$+\frac{1+2\beta}{4\beta}\gamma_1 t^{1-2\beta}\int_{x-t}^{x+t}[t^2-(\xi-x)^2]^{\beta}\,{}_0F_3\left(\frac{3}{2},\frac{\beta+1}{2},\frac{\beta+2}{2};\delta\right)\varphi_1(\xi)d\xi+$$

$$+\gamma_2\int_{x-t}^{x+t}[t^2-(\xi-x)^2]^{-\beta}\,{}_0F_3\left(\frac{1}{2},\frac{1-\beta}{2},\frac{2-\beta}{2};\delta\right)\psi_0(\xi)d\xi-$$

$$-\frac{1}{2}\gamma_2\int_{x-t}^{x+t}[t^2-(\xi-x)^2]^{-\beta}\,{}_0F_3\left(\frac{3}{2},\frac{1-\beta}{2},\frac{2-\beta}{2};\delta\right)(\xi-x)\psi_0'(\xi)d\xi+$$

$$+\gamma_3\int_{x-t}^{x+t}[t^2-(\xi-x)^2]^{1-\beta}\,{}_0F_3\left(\frac{3}{2},\frac{2-\beta}{2},\frac{3-\beta}{2};\delta\right)\psi_1(\xi)d\xi$$

tenglik bilan aniqlangan $u(x,t)$ *funksiya* $\{(4),\ (5)\}$ *masalaning yagona yechimi bo'ladi, bu yerda* $\delta=\frac{c}{16}[t^2-(\xi-x)^2]^2$, $\gamma_1=\frac{\Gamma(1/2+\beta)}{\sqrt{\pi}\Gamma(\beta)}$, $\gamma_2=\frac{\Gamma(1/2-\beta)}{2\sqrt{\pi}\Gamma(1-\beta)}$, $\gamma_3=\frac{\gamma_2(3-2\beta)}{4(1+2\beta)(1-\beta)^2}$, ${}_0F_3(a,b,c;z)$ – *umumlashgan gipergeometrik funksiya,* $\Gamma(z)$ – *Eylerning gamma-funksiyasi.*

2.2-paragrafda $\Omega_2=\{(x,y):0<y<x<+\infty\}$ sohada fazoviy o'zgaruvchisi bo'yicha Bessel operatori qatnashgan ushbu

$$L_\alpha^\lambda(u)\equiv\left(\frac{\partial^2}{\partial y^2}-\frac{\partial^2}{\partial x^2}-\frac{2\alpha}{x}\frac{\partial}{\partial x}\right)^2u(x,y)-\lambda^2u(x,y)=0 \qquad (6)$$

tenglama uchun quyidagi masala qo'yilgan va tadqiq etilgan, bu yerda $\alpha,\lambda\in R$ bo'lib, $\alpha>0$.

Koshi masalasi. *Shunday* $u(x,y)\in C^3(\Omega_2\cup J)\cap C^4(\Omega_2)$ *funksiya topilsinki, u* Ω_2 *sohada* (6) *tenglamaning klassik yechimi bo'lib, quyidagi*

$$u(x,0)=\varphi_0(x),\ u_y(x,0)=\psi_0(x),\ u_{yy}(x,0)=\varphi_1(x),\ u_{yyy}(x,0)=\psi_1(x),\ x\ge 0 \quad (7)$$

shartlarni qanoatlantirsin, bu yerda $J=\{(x,y):y=0,\ 0\le x<+\infty\}$, $\varphi_k(x),\ \psi_k(x)$, $k=0,1$ – *berilgan silliq funksiyalar.*

Bu yerda asosiy natija quyidagi teorema ko'rinishida bayon qilingan:

2-teorema. *Agar* $\varphi_j(x)\in C^{4-2j}(R)$, $\psi_j(x)\in C^{3-2j}(R)$, $j=0,1$ *va boshlang'ich funksiyalarning barcha mos hosilalari* $x=0$ *da nolga teng bo'lsa, u holda*

$$u(x,y)=\frac{1}{2}\frac{\partial}{\partial y}\int_{x-y}^{x+y}(s/x)^\alpha\varphi_0(s)F(\alpha,1-\alpha,1;\sigma_0)ds-$$

$$-\frac{y}{4}\int_{x-y}^{x+y}(s/x)^\alpha f_0(s)F(\alpha,1-\alpha,1;\sigma_0)ds-$$

$$-\frac{cy}{6}\int_{x-y}^{x+y}(s/x)^\alpha\varphi_0(s)H_1(x,y,s)ds+\frac{y}{4}\int_{x-y}^{x+y}(s/x)^\alpha\varphi_1(s)H_2(x,y,s)ds+$$

$$+\frac{y}{4}\frac{\partial}{\partial y}\int_{x-y}^{x+y}(s/x)^\alpha\psi_0(s)F(\alpha,1-\alpha,1;\sigma_0)ds+$$

$$+\int\limits_{x-y}^{x+y}(s/x)^{\alpha}\psi_0(s)K_1(x,y,s)ds+\int\limits_{x-y}^{x+y}(s/x)^{\alpha}\psi_1(s)K_2(x,y,s)ds$$

formula bilan aniqlangan $u(x,y)$ *funksiya* {(6), (7)} *masalaning yagona klassik yechimi bo'ladi, bu yerda*

$$H_1(x,y,s)=y^2F(\alpha,1-\alpha,1;\sigma_0)-$$

$$-3[y^2-(s-x)^2]\sum_{n=0}^{\infty}\frac{1}{(2)_n(3/2)_n(3/2)_n}\frac{\sigma_2^n}{n!}F(\alpha,1-\alpha,2n+2;\sigma_0)-$$

$$-\frac{3}{2}[y^2-(s-x)^2]\sum_{n=0}^{\infty}\frac{1}{(2)_n(5/2)_n(3/2)_n}\frac{\sigma_2^n}{n!}F(\alpha,1-\alpha,2n+2;\sigma_0)-$$

$$-\frac{c}{20}(s-x)^2[y^2-(s-x)^2]\sum_{n=0}^{\infty}\frac{(1/2)_n}{(3)_n(7/2)_n(3/2)_n(3/2)_n}\frac{\sigma_2^n}{n!}F(\alpha,1-\alpha,2n+2;\sigma_0)-$$

$$-\frac{2}{5}\sigma_2\sum_{n=0}^{\infty}\frac{(1/2)_n(1)_n}{(2)_n(3)_n(7/2)_n(3/2)_n(3/2)_n}\frac{\sigma_2^n}{n!}\,{}_3F_2(\alpha,1-\alpha,2;1,2n+3;\sigma_0),$$

$$H_2(x,y,s)=F(\alpha,1-\alpha,1;\sigma_0)+$$

$$+\frac{4}{3}\sigma_2\sum_{n=0}^{\infty}\frac{(1)_n}{(2)_n(2)_n(5/2)_n(3/2)_n}\frac{\sigma_2^n}{n!}F(\alpha,1-\alpha,2n+3;\sigma_0),$$

$$K_1(x,y,s)=\frac{3}{4}F(\alpha,1-\alpha,1;\sigma_0)+$$

$$+\frac{7}{3}\sigma_1\sum_{n=0}^{\infty}\frac{(1)_n}{(2)_n(2)_n(3/2)_n(5/2)_n}\frac{\sigma_2^n}{n!}F(\alpha,1-\alpha,2n+3;\sigma_0)-$$

$$-\frac{4}{3}\sigma_1\sum_{n=0}^{\infty}\frac{(1)_n}{(2)_n(2)_n(3/2)_n(5/2)_n}\frac{\sigma_2^n}{n!}\,{}_3F_2(\alpha,1-\alpha,2;1,2n+3;\sigma_0)+$$

$$+\frac{c}{12}[2(s-x)^2-y^2][(s-x)^2-y^2]\sum_{n=0}^{\infty}\frac{(1)_n}{(2)_n(3/2)_n(5/2)_n}\frac{\sigma_2^n}{n!}F(\alpha,1-\alpha,2n+2;\sigma_0),$$

$$K_2(x,y,s)=\frac{1}{8}[y^2-(s-x)^2]\sum_{n=0}^{\infty}\frac{1}{(1)_n(3/2)_n(3/2)_n}\frac{\sigma_2^n}{n!}F(\alpha,1-\alpha,2n+2;\sigma_0),$$

$$\sigma_0=[y^2-(x-s)^2]/(4xs),\qquad \sigma_1=(c/16)(\eta^2-y^2)^2,\qquad \sigma_2=(c/16)[y^2-(s-x)^2]^2,$$

$$f_0(x)=\varphi_0''(x)+\frac{2\alpha}{x}\varphi_0'(x).$$

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Bessel operatori qatnashgan to'rtinchi tartibli psevdogiperbolik tenglama uchun masalalar"** deb nomlangan bo'lib, u ikkita paragrafdan iborat. Bu bobda Bessel operatori qatnashgan Bussineska-Lyav tenglamasi uchun Gursa va Koshi masalalari almashtirish operatori hamda Riman usuli yordamida yechilgan.

3.1-paragrafda $\Omega_3=\{(x,y):0<x<l,\ 0<y<h\}$ sohada

$$L_\alpha(u)=\frac{\partial^2}{\partial y^2}\left(\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{2\alpha}{x}\frac{\partial u}{\partial x}-u\right)+\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{2\alpha}{x}\frac{\partial u}{\partial x}=0 \qquad (8)$$

tenglama uchun quyidagi Gursa masalasi o‘rganilgan, bu yerda $\alpha \in R$ bo‘lib, $0<\alpha<1/2$.

Gursa masalasi (*G* masala). Ω_3 *sohada* (8) *tenglamaning shunday yechimi topilsinki, u quyidagi chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin*:

$$u(x,0)=\psi_1(x), \quad u_y(x,0)=\psi_2(x), \quad 0\le x\le l; \tag{9}$$

$$u(0,y)=\varphi_1(y), \quad \lim_{x\to 0} x^{2\alpha}u_x(x,y)=\varphi_2(y), \quad 0\le y\le h, \tag{10}$$

bu yerda $\psi_k(x), \varphi_k(y), (k=1,2)$ *berilgan silliq funksiyalar bo‘lib*, $\psi_1(0)=\varphi_1(0)$, $\psi_2(0)=\varphi_1'(0)$ *tengliklar bajariladi*.

Dastlab, {(8)-(10)} masala $\varphi_2(y)=0$ bo‘lgan holda qaralgan va bu masalaning yechimi quyidagi ko‘rinishda topilgan:

$$u_1(x,y)=\psi_1(x)\cos y+\psi_2(x)\sin y+\varphi_1(y)\bar{I}_{\alpha-1/2}(x)-$$

$$-\varphi_1(0)K_0\left(1;\alpha+\frac{1}{2},1;\frac{1}{2},1;\frac{x^2}{4},-\frac{y^2}{4}\right)-\varphi_1'(0)yK_0\left(1;\alpha+\frac{1}{2},1;\frac{3}{2},1;\frac{x^2}{4},-\frac{y^2}{4}\right)+$$

$$+\gamma_1 x^2\int_0^y K_0\left(2;\alpha+\frac{3}{2},2;\frac{3}{2},2;\frac{x^2}{4},-\frac{(\eta-y)^2}{4}\right)(\eta-y)\varphi_1(\eta)d\eta-$$

$$-\frac{y^2}{2}\int_0^x (t/x)^\alpha (x-t)\Phi_1(x,y,t)\psi_1(t)dt-\frac{y^3}{6}\int_0^x (t/x)^\alpha (x-t)\Phi_2(x,y,t)\psi_2(t)dt, \tag{11}$$

bu yerda $\gamma_1=1/[2(2\alpha+1)]$, $\bar{I}_\nu(x)=\Gamma(\nu+1)(x/2)^{-\nu}I_\nu(x)$ – mavhum argumentli Bessel-Klifford funksiyasi, $K_0(a;b,c;b',c';\sigma_1,\sigma_2)$ esa (1) tenglik bilan aniqlangan gipergeometrik funksiya,

$$\Phi_1(x,y,t)=\sum_{m,n,k=0}^{\infty}\frac{(2)_{m+n}}{(3/2)_m(2)_m(3/2)_n(2)_n}\frac{\omega_1^m}{m!}\frac{\omega_2^n}{n!}F(\alpha,1-\alpha,m+3/2;\omega_3),$$

$$\Phi_2(x,y,t)=\sum_{m,n,k=0}^{\infty}\frac{(2)_{m+n}}{(3/2)_m(2)_m(5/2)_n(2)_n}\frac{\omega_1^m}{m!}\frac{\omega_2^n}{n!}F(\alpha,1-\alpha,m+3/2;\omega_3),$$

$$\omega_1=\frac{(x-t)^2}{4},\ \omega_2=-\frac{y^2}{4}\quad \omega_3=-\frac{(x-t)^2}{4xt}.$$

(8) tenglamaning xossalaridan va (11) formuladan foydalanib, (8) tenglamaning $u(x,0)=0$, $u_y(x,0)=0$, $u(0,y)=0$, $\lim\limits_{x\to 0} x^{2\alpha}u_x(x,y)=\varphi_2(y)$ shartlarni qanoatlantiruvchi $u_2(x,y)$ yechimi formulasi quyidagicha topilgan:

$$u_1(x,y)=\frac{x^{1-2\alpha}}{1-2\alpha}\varphi_2(y)\bar{I}_{1/2-\alpha}(x)+\tilde{\gamma}_1 x^{3-2\alpha}\int_0^y K_0\left(2;\frac{5}{2}-\alpha,2;\frac{3}{2},2;\frac{x^2}{4},\sigma_2\right)(\eta-y)\varphi_2(\eta)d\eta,$$

bu yerda $\tilde{\gamma}_1=1/[2(3-2\alpha)(1-2\alpha)]$.

3-teorema. *Aytaylik,* $0<\alpha<1/2$, $\psi_k(x)\in C[0,l]\cap C^2(0,l)$, $\varphi_k(y)\in C[0,h]\cap C^2(0,h)$, ($k=1,2$) *bo‘lsin, bunda* $\varphi_2'(y)$ *funksiya* $x\to 0$ da 2α *dan kichik tartibli maxsuslikka ega bo‘lishi mumkin. U holda* $u(x,y)=u_1(x,y)+u_2(x,y)$ *funksiya G masalaning yagona yechimi bo‘ladi.*

3.2-paragrafda quyidagi masala tadqiq qilingan.

Koshi masalasi. $\Omega_4=\{(x,y):0<x<y\}$ *sohada*

$$L_\alpha(u)\equiv\frac{\partial^2}{\partial y^2}\left(\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{2\alpha}{x}\frac{\partial u}{\partial x}-u\right)+\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{2\alpha}{x}\frac{\partial u}{\partial x}=f(x,y) \qquad (12)$$

tenglamaning

$$u\big|_{y=x}=\varphi_0(x),\ \left.\frac{\partial u}{\partial n}\right|_{y=x}=\varphi_1(x),\ \left.\frac{\partial^2 u}{\partial n^2}\right|_{y=x}=\varphi_2(x),\ \left.\frac{\partial^3 u}{\partial n^3}\right|_{y=x}=\varphi_3(x),\ x>0, \qquad (13)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin, bu yerda $\alpha\in R$ *bo'lib*, $0<\alpha<1/2$, $\varphi_k(x)$ $(k=\overline{0,3})$, $f(x,y)$ *berilgan funksiyalar*, n *- tashqi birlik normal vektor*.

1.3-paragrafda ishlab chiqilgan usul yordamida {(12), (13)} masalaning Riman funksiyasi topilgan bo'lib, u quyidagi ko'rinishga ega:

$$\upsilon(x,y;\xi,\eta)=(\xi-x)(\eta-y)\left(\frac{\xi}{x}\right)^\alpha\times$$

$$\times\sum_{m,n=0}^{\infty}\frac{(1)_{m+n}}{(3/2)_m(1)_m(3/2)_n(1)_n}\frac{\sigma_1^m}{m!}\frac{\sigma_2^n}{n!}F\left(\alpha,1-\alpha,m+\frac{3}{2};\sigma_3\right), \qquad (14)$$

bu yerda $\sigma_1=(1/4)(\xi-x)^2$, $\sigma_2=-(1/4)(\eta-y)^2$, $\sigma_3=-(\xi-x)^2/(4x\xi)$.

{(12), (13)} masalaning yechimi (14) Riman funksiyasi yordamida quyidagi ko'rinishda topilgan:

$$u(x,y)=\left[1+\frac{\alpha}{y}(x-y)\right]\left(\frac{y}{x}\right)^\alpha\Xi_2\left(\alpha,1-\alpha,\frac{3}{2};\varpi_1,\varpi_2\right)\varphi_0(y)+$$

$$+\frac{4\varpi_2}{3}\left(\frac{y}{x}\right)^\alpha\Xi_2\left(\alpha,1-\alpha,\frac{5}{2};\varpi_1,\varpi_2\right)\varphi_0(y)+$$

$$+\frac{2\alpha(1-\alpha)\varpi_1}{3}\frac{x+y}{y}\left(\frac{y}{x}\right)^\alpha\Xi_2\left(1+\alpha,2-\alpha,\frac{5}{2};\varpi_1,\varpi_2\right)\varphi_0(y)+$$

$$+(x-y)\left(\frac{y}{x}\right)^\alpha\Xi_2\left(\alpha,1-\alpha,\frac{3}{2};\varpi_1,\varpi_2\right)\Phi_1(y)+$$

$$+\int_x^y(\xi-x)\left(\frac{\xi}{x}\right)^\alpha\sum_{k=0}^{\infty}\frac{(\alpha)_k(1-\alpha)_k}{(3/2)_k}\frac{\sigma_3^k}{k!}K_0\left(1;\frac{3}{2}+k,1;\frac{1}{2},1;\sigma_1,\mu\right)\Phi_2(\xi)\,d\xi-$$

$$-\int_x^y(\xi-x)(\xi-y)\left(\frac{\xi}{x}\right)^\alpha\sum_{k=0}^{\infty}\frac{(\alpha)_k(1-\alpha)_k}{(3/2)_k}\frac{\sigma_3^k}{k!}K_0\left(1;\frac{3}{2}+k,1;\frac{3}{2},1;\sigma_1,\mu\right)\Phi_3(\xi)\,d\xi-$$

$$-\frac{1}{6}\int_x^y(\xi-x)^3(\xi-y)\left(\frac{\xi}{x}\right)^\alpha\sum_{k=0}^{\infty}\frac{(\alpha)_k(1-\alpha)_k}{(5/2)_k}\frac{\sigma_3^k}{k!}K_0\left(2;\frac{5}{2}+k,2;\frac{3}{2},2;\sigma_1,\mu\right)\Phi_4(\xi)-$$

$$-\iint_{\Omega_1}(\xi-x)(\eta-y)\left(\frac{\xi}{x}\right)^\alpha\sum_{k=0}^{\infty}\frac{(\alpha)_k(1-\alpha)_k}{(3/2)_k}\frac{\sigma_3^k}{k!}K_0\left(1;\frac{3}{2}+k,1;\frac{3}{2},1;\sigma_1,\sigma_2\right)f(\xi,\eta)\,d\xi d\eta, \qquad (15)$$

bu yerda $\mu=-\dfrac{(\xi-y)^2}{4}$, $\varpi_1=-\dfrac{(y-x)^2}{4xy}$, $\varpi_2=\dfrac{(y-x)^2}{4}$,

$$\Phi_1(\xi)=\frac{1}{2}\left[\sqrt{2}\varphi_1(\xi)+\varphi_0'(\xi)\right],$$

$$\Phi_2(\xi)=\frac{1}{4}\left[\varphi_0''(\xi)+2\sqrt{2}\varphi_1'(\xi)+2\varphi_2(\xi)+4\varphi_0(\xi)\right]+\frac{\alpha}{\xi}\left[\sqrt{2}\varphi_1(\xi)+\varphi_0'(\xi)\right],$$

$$\Phi_3(\xi)=\frac{1}{4}\left[\varphi_0'''(\xi)-2\varphi_0'(\xi)+2\sqrt{2}\varphi_1(\xi)+\sqrt{2}\varphi_1'(\xi)-2\varphi_2'(\xi)-2\sqrt{2}\varphi_3(\xi)\right]+$$

$$+\frac{\alpha}{2\xi}\left[\varphi_0''(\xi)-2\varphi_2(\xi)\right],$$

$$\Phi_4(\xi)=\sqrt{2}\varphi_1(\xi)+\varphi_0'(\xi)+\frac{2\alpha}{\xi}\varphi_0(\xi).$$

Quyidagi teorema o‘rinli:

4-teorema. *Aytaylik,* $\varphi_j(x)\in C^{3-j}(R^+)$, $j=\overline{0,3}$ *va boshlang‘ich funksiyalarning barcha mos hosilalari* $x=0$ *da nolga teng bo‘lsa, u holda* (15) *tenglik bilan aniqlangan* $u(x,y)$ *funksiya* {(12), (13)} *Koshi masalasining yagona yechimi bo‘ladi*.

XULOSA

Dissertatsiya ishi Bessel operatori qatnashgan to‘rtinchi tartibli giperbolik va psevdogiperbolik tenglamalar uchun boshlang‘ich va chegaraviy masalalarni qo‘yish va tadqiq etishga bag‘ishlangan.

Tadqiqot natijalari quyidagicha:

1. Bessel operatori qatnashgan xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun Riman funksiyalarini qurish usuli ishlab chiqilgan.
2. Vaqt o‘zgaruvchisi bo‘yicha ta’sir qiluvchi Bessel operatori qatnashgan to‘rtinchi tartibli giperbolik tenglama uchun Koshi masalasi yechimining formulasi almashtirish operatorlari va Riman usuli yordamida topilgan.
3. Almashtirish operatorlari va Riman usulidan foydalanib, fazoviy o‘zgaruvchisi bo‘yicha ta’sir qiluvchi Bessel operatori qatnashgan to‘rtinchi tartibli giperbolik tenglama uchun Koshi masalasi yechimining formulasi topilgan.
4. Almashtirish operatorlari va Riman usulidan foydalanib, Bessel operatori qatnashgan Bussineska-Lyav tenglamasi uchun Gursa masalasi yechimining integral ko‘rinishi topilgan.
5. Bessel operatori qatnashgan bir jinsli bo‘lmagan Bussineska-Lyav tenglamasi uchun Riman funksiyasi qurilgan va bu funksiya yordamida Koshi masalasi yechimining formulasi topilgan.

Dissertatsiya ishida olingan natijalar va o‘rganilgan masalalardan Bessel operatori qatnashgan xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasini yanada rivojlantirish uchun foydalanish mumkin.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ОРИПОВ ШУКРУЛЛО АБДУСАЛОМОВИЧ

ЗАДАЧИ ДЛЯ ГИПЕРБОЛИЧЕСКИХ И ПСЕВДОГИПЕРБОЛИЧЕСКИХ УРАВНЕНИЙ ЧЕТВЕРТОГО ПОРЯДКА С ОПЕРАТОРОМ БЕССЕЛЯ

01.01.02 – Дифференциальные уравнения и математическая физика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Фергана – 2025

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по физико – математическим наукам зарегистрирована в Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B 2024.2.PhD/FM1058.

Диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб – странице Научного совета (www.fdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Каримов Шахобиддин Туйчибоевич** доктор физико-математических наук, доцент
Официальные оппоненты:	**Хасанов Анварджан** доктор физико-математических наук, профессор
	Эргашев Тухтасин Гуламжанович доктор физико-математических наук, доцент
Ведущая организация:	**Термезский государственный университет**

Защита диссертации состоится «16» 04 2025 года в 10:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 при Ферганском государственном университете. (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, дом 19. Тел: (+99873) 244-44-02, факс: (+99873) 244-44-93, e-mail: fardu_info@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно–ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована за №495). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, дом 19). Тел.: (+99873) 244-44-94.

Автореферат диссертации разослан «03» 04 2025 года.
(протокол рассылки №7 от «03» 04 2025 года).

Ю.П.Апаков
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф-м.н., профессор

И.У.Хайдаров
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, к.ф-м.н., доцент

К.С.Газиев
Заместитель председателя научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, к.ф-м.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Многие практические исследования, проводимые в мировом масштабе, приводят к решению начальных и краевых задач для дифференциальных уравнений. В частности, математические модели теории осесимметрического потенциала, преобразованию Радона и томографии, газодинамики и акустики, теории струй в гидродинамике, процессов упругости и пластичности сводятся к гиперболическим и псевдогиперболическим дифференциальным уравнениям четвертого порядка с сингулярными коэффициентами. Отсюда следует, что исследование начальных и краевых задач для гиперболических и псевдогиперболических дифференциальных уравнений четвертого порядка с сингулярными коэффициентами, как одно из современных направлений теории уравнений в частных производных, является актуальным.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на постановку и изучение начальных и краевых задач для гиперболических и псевдогиперболических уравнений четвертого порядка, а также на разработку методов их решения. В связи с этим особое внимание уделяется не только исследованию начальных и краевых задач для таких дифференциальных уравнений четвертого порядка, но и изучению начальных и начально-краевых задач для гиперболических и псевдогиперболических уравнений четвертого порядка с сингулярными коэффициентами, особенно с оператором Бесселя.

В нашей Республике особое внимание уделяется фундаментальным исследованиям, которые имеют как теоретическое, так и практическое значение. В том числе, проведение научных исследований на уровне международных стандартов по приоритетным направлениям математических наук, особенно, по алгебре и функциональному анализу, по дифференциальным уравнениям и математической физике, по теории динамических систем, по геометрии и топологии, по теории вероятностей и математической статистике, по прикладной математике и математическому моделированию определено как основные задачи и направления деятельности математиков[2]. К настоящему времени в этих областях достигнуты важные научные результаты. В этом направлении особое значение приобретает нахождение точного представления решения и доказательство единственности задач Коши и Гурса для гиперболических и псевдогиперболических уравнений четвертого порядка с оператором Бесселя.

Проблема исследования настоящей диссертации находится в русле задач, обозначенных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-2789 от 17 февраля 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии Наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности», ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего

[2] Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18 мая 2017 года № 292 «О мерах по организации деятельности вновь созданных научно-исследовательских учреждений Академии наук Республики Узбекистан»

образования», ПП-4387 от 9 июля 2019 года «О мерах государственной поддержки дальнейшего развития математического образования и науки, а также коренного совершенствования деятельности Института математики имени В.И. Романовского Академии Наук Республики Узбекистан», ПП-4708 от 7 мая 2020 года «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики», а также в других нормативно-правовых актах, касающихся фундаментальной науки.

